

O'ZBEKISTONDA ENERGETIKA VA UNING ISTIQBOLLARI

Abdusattorov sunnatjon ravshanovich

Termiz davlat universiteti iqtisodiyot fakulteti 223 - guruh talabasi.

Tel: 88 069 16 76

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14176063>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbekistonda elektr energiyasi bilan bog'liq muammolar va yangiliklar ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, O'zbekiston elektr energetikasi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar va holatlar o'rganilgan holda kelgusida sohani rivojlantirishga oid tavsiyalar bildirib o'tilgan. Bundan tashqari bugungi kunda mamlakatimizda elektr energetikasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar xususida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: GES, quyosh elektr stansiyasi, shamol elektrstansiyasi, elektr ta'minoti, tabiiy manbalar.

ENERGY IN UZBEKISTAN AND ITS PROSPECTS

Abstract. This article shows the problems and news related to electricity in Uzbekistan.

Also, the situations and conditions related to the electric power industry of Uzbekistan were studied, and recommendations were made for the future development of the sector. In addition, the reforms aimed at the development of electric energy in our country were discussed today.

Key words: Hydroelectric power plant, solar power plant, wind power plant, electricity supply, natural resources.

ЭНЕРГЕТИКА УЗБЕКИСТАНА И ЕЕ ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация. В данной статье показаны проблемы и новости, связанные с электроэнергетикой в Узбекистане. Также были изучены ситуации и условия, связанные с электроэнергетикой Узбекистана, и даны рекомендации по дальнейшему развитию отрасли. Кроме того, сегодня обсуждались реформы, направленные на развитие электроэнергетики в нашей стране.

Ключевые слова: Гидроэлектростанция, солнечная электростанция, ветряная электростанция, электроснабжение, природные ресурсы.

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan tub o'zgarishlar amalga oshirilyapti. Respublikaning turli hududlarida erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar, klasterlar tashkil etilyapti. "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Xavfsiz shahar" kabi strategik dasturlar asosida shaharu qishloqlarda ulkan bunyodkorliklar qilinmoqdaki, ularning qiyofasi mutlaqo yangilanmoqda.

Shunga yarasha turizm ham taraqqiy topmoqda. O'z navbatida, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasiga har qachongidan ham ko'ra ko'proq e'tibor qaratilayotir.

Muammolar; Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida kuzatilayotgan bu kabi shiddatli rivojlanish sur'atlari, eng avvalo, elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojning ham o'sishiga olib kelmoqda.

Masalan, 2000 yilda bir nafar maishiy foydalanuvchi bir oyda 114 kVt/soat elektr energiyasi ishlatgan bo'lsa, 2018 yilga kelib bu ko'rsatkich 57 foiz ko'payib, 200 kVt/soatga yetdi.

Ayni chogʻda joriy yilda respublika boʻyicha elektr energiyasidan umumfoydalanishda aholi ulushi 26,5 foizga yetdi.

Oxirgi yillarda Oʻzbekistonning iqtisodiy oʻsish dinamikasi barqarorlashdi. Mazkur tendensiya aholi turmush darajasiga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. Boshqa tomondan esa bu ikki omil elektr energiyasi isteʼmolining muttasil ravishda ortishiga sabab boʻlyapti. 2030-yilgacha mamlakatda elektr energiyasiga boʻlgan talab yiliga taxminan 6-7 foizga oʻsishi bashorat qilingan.

Biroq Oʻzbekiston bunday ssenariyga tayyor emas. Chunki mavjud quvvatlar ichki ehtiyojni toʻliq qondirish imkonini bermaydi. Tezkor choralar koʻrilmasa, kelgusida energiya taqchilligi muammosi taraqqiyotimizga tushov boʻlishi aniq. Energetikaning ham anʼanaviy, ham muqobil turlarini rivojlantirish Oʻzbekiston uchun yagona toʻgʻri yoʻl hisoblanadi.

Hozirgi kunda yurtimizda energiya tizimlari elektr tarmoqlari uzunligi 254,8 ming kilometrga teng. Shundan 218,4 ming kilometri 0,4-10 kV.li kuchlanishga ega past voltli taqsimlash tarmoqlaridir. Ulardan 62,4 foizining ishlatilish muddati 30 yildan oshib ketgan.

Taqsimlash tarmoqlarining juda eskirib ketgani esa elektr energiyasining sezilarli darajada yoʻqotilishiga olib kelmoqda. Yaʼni ayni paytda issiqlik elektrostansiyalaridan elektr energiyasi tarmoqlariga chiqarilayotgan umumiy elektr quvvatining 20 foizi yoʻqotilayapti. Bir koʻz oʻngingizga keltiring: biz uchun ishlab chiqarilayotgan yorugʻlik va issiqlik manbaining beshdan bir qismi havoga uchib ketmoqda, uvol boʻlayapti. Aynan mana shunday kamchiliklarni bartaraf etish, nuqsonlarni yoʻqotish va isrofga yoʻl qoʻymaslik uchun nima qilish kerak? Birinchi navbatda, isteʼmolchilarning elektr taʼminoti ishonchliligi va sifatini taʼminlab qoʻyish darkor.

Albatta, bunda kelajakda elektr quvvatiga boʻlgan talabning oshib borishi ham inobatga olinish shart. Hozirgi vaqtda, Respublika boʻyicha ishlab chiqarishning umumiy ulushi 82,5% boʻlgan "issiqlik elektr stansiyalari" AJ tarkibiga kiruvchi elektr stansiyalaridan tashqari, elektr energiyasi ishlab chiqarishni "Oʻzbekgidroenergo" AJ gidroelektr stansiyalari 9% ulush bilan amalga oshirmoqda, davlat-xususiy sheriklik prinsipi boʻyicha foydalanishga topshirilgan elektr stansiyalari 8% ulush bilan, shu jumladan, 7,4% IES va 0,6% quyosh elektr stansiyalari), shuningdek, "Uz-KorGas Chemical" MCHJ QK korxonalari blokstansiyalari 0,5% va "GTL" MCHJ respublika boʻyicha umumiy ishlab chiqarish hajmining 0,2% ni tashkil etadi.

Yechimlar; Respublikamizda energetikaning pishiq-puxta rivojlanishi, isteʼmolchilarga elektr energiyasini barqaror yetkazib berish, ekologik xavfsizlikni taʼminlash maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol qurilmalari)ni hayotga tatbiq etishga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Zero, bunday neʼmatlarni oʻzlashtirish tabiiy resurslarni kelajak avlod uchun asrab-avaylash, atmosferaga yoqilgʻi yonishidan hosil boʻlgan zararli moddalar chiqarishni kamaytirishning muhim omili hisoblanadi. Yashil energetikani rivojlantirish uchun esa katta miqdorda moliyaviy sarmoya talab etiladi.

Bu boradagi loyihalarni roʻyobga chiqarish uchun salohiyatli investorlarni jalb etish elektr energiyasiga iqtisodiy jihatdan jozibador tariflarni joriy etish evazigagina mumkin boʻladi.

Sohadagi muammolarni yechish 2020-2030-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan taʼminlash konsepsiyasida aniq-tiniq koʻrsatib berilgan. Konsepsiyada 2030-yilga qadar mamlakat elektr energiya generatsiyasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM)ning ulushini 11 foizdan oshirish koʻzda tutilgan.

Shundan 5 foizi quyosh, 3 foizi shamol hamda 3,8 foizi gidroenergetika hissasiga to'g'ri kelishi kerak. Bu vazifalar bosqichma-bosqich bajarilyapti. 2021 yili Navoiy viloyatida birinchi fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi hamda Zarafshonda ilk shamol generatori qurila boshlandi.

Bir vaqtning o'zida gidroenergetikani rivojlantirishga doir loyihalar ham amalga oshirilmoqda. Davlatimiz "yashil" energetikaga katta umid bog'lagan. Mazkur tarmoqqa nufuzli xorijiy investitsiyalar paketi yo'naltirilyapti. Demak, kelgusida qayta tiklanuvchi energiya manbalari O'zbekiston energobalansida yuqori pozitsiyani egallashi turgan gap. Sohada olib borilayotgan diversifikatsiyalash siyosatining ustuvor vazifalaridan biri ham shundan iborat.

Ammo faqat "yashil" energetika bilan cheklanib bo'lmaydi. O'ylashimcha, davlatimiz rahbariyati buni yaxshi anglamoqda. Shu bois yurtimizda elektr energiyaning boshqa manbalaridan birday samarali foydalanish masalasi ko'ndalang qo'yilgan. Aytaylik, issiqlik elektr stansiyalari (IES)dan butkul voz kecholmaymiz. Hozir ular energiya generatsiyasining salkam 90 foizini ta'minlayapti. 2030-yilgacha bu raqamni 60 foizga tushirish rejalashtirilgan. Shunga qaramay, ba'zi hududlarda yangi IESlar barpo etilmoqda. Chunki bu ob'ektiv zsururat. Masalan, 2021 yili Farg'ona vodiysida To'raqo'rg'on issiqlik elektr stansiyasi foydalanishga topshirildi.

To'g'ri, unda qimmatbaho xomashyo – tabiiy gaz yoqilib, energiya ishlab chiqariladi.

Biroq mazkur ob'ekt qanchadan-qancha odamlar hamda tadbirkorlarining og'irini yengil qilayotgani ayni haqiqat. O'tgan yillarda vodiy viloyatlarida tadqiqot olib borilganda. O'shanda aholi hamda biznes vakillari energiya ta'minotidagi doimiy uzilishlarni birinchi darajali muammo sifatida ko'rsatgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak mamlakatimizda aholini uzluksiz ravishda elektr energiyasi bilan taminlashga doir bir qancha chora tadbirlar va xalqaro miqyosda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. bunga misol qilib mamlakatimizda bunyod etilayotgan qayta tiklanadigan energiya stansiyalarini ya'ni quyosh elektr stansiyasi, shamol elektrstansiyalari va gidrostatik elektr stansiyalarni olishimiz mumkin. shuningdek Rossiya davlati bilan hamkorlikda qurilishi kutilayotgan atom elektrstansiyasi energetika tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning yaqqol misoli hisoblanadi. issiqlik elektr stansiyalari (IES)dan butkul voz kecholmaymiz chunki hozir ular energiya generatsiyasining salkam 90 foizini ta'minlayapti. men bu korsatkichni 60 foizga kamaytirishni va qolgan 30 foizini muqobil energiya manbalari bilan to'ldirish, hamda aholida elektr energiyasidan to'g'ri va samarali foydalanish bo'yicha madaniyat shakllantirish tarafdoriman.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Energiyadan ratsional foydalanish to'g'risida" 1997 yil 25 aprelda qabul qilingan №412-1 raqamli qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining "Elektr energetika to'g'risida" 2009 yil 30 sentyabrda qabul qilingan №3 RU - 225 raqamli qonuni
3. Recover better: economic and social challenges and opportunities.
4. Arxiv.uz 3. Allayev "Elektrotexnika Uzbekistana I Mira" fan va texnologiya 2009 yil 463-bet
5. <http://t.me/energetiklar>.